

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA ONA LINGVOKONSEPTI VA LINGVOPOETIKASI

Tojimatov Rasuljon G'anijonovich

NamMQI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi

NamDU 2-kurs magistranti

Holmurodova Nigora G'anijonovna

Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarshli 7-umum ta'lim maktabi ingliz tili
o'qituvchisi

Odilov Muhammadrizo Lazizjon o'g'li

NamMQI 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada lingvistik tushuncha sifatida muhokama qilinadi bir turdagi boshlang'ich birlik, asosiy element til va madaniyatni tushunish. Buni aniqladi bu hodisani har tomonlama tahlil qilish yordam beradi til muhitining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; tadqiqotsiz tahlil qilib bo'lmaydi tarixiy va madaniy xususiyatlar zamonaviy jamiyat.

Kalit so'zlar: *Konsepsiya, lingvokonsept, lingvopoetik metafora, sinekdoxa, kognitiv lingvistika, antropologiya, semantika,*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается языковая концепция как некая первичная единица, базовый элемент понимания языка и культуры. Комплексный анализ этого явления поможет определить характер и особенности языковой среды; Исторические и культурные особенности современного общества невозможно проанализировать без исследования.

Ключевые слова: *Концепция, лингвоконцепт, лингвопоэтическая метафора, синекдоха, когнитивная лингвистика, антропология, семантика,*

ABSTRACT

The article discusses as a linguistic concept a kind of primary unit, the basic element of understanding language and culture. A comprehensive analysis of this phenomenon will help to determine the nature and peculiarities of the language environment; The historical and cultural features of modern society cannot be analyzed without research.

Keywords: *Concept, lingvokonsept, lingvopoetic metaphor, synecdoche, cognitive linguistics, anthropology, semantics,*

KIRISH

Konsepsiya - bu jamoaviy bilim ongning birligi (eng yuqori ma'naviy qadriyatlar) mavjud lingvistik ifoda va etnomadaniy o'ziga xoslik bilan belgilanadi. Uning ichida struktura uch qismga bo'linadi: konseptual, xarakteristikani aks ettiruvchi va konsepsiyaning ta'rifiy tuzilishi; majoziy, mustahkamlovchi kognitiv konsepsiyani qo'llab-quvvatlovchi metaforalar lingvistik ong; mazmunli, ismning egallagan joyiga qarab belgilanadi. Konsepsiyada mentalitet, madaniyat va fan holati butun xalq sifatida. Demak, xalqning mentaliteti eng muhimi, dolzarbdir tilning madaniy tushunchalari.

Lingvokonseptida esa "ona" madaniy tushunchasi "oila", "Vatan" kabi konstruktiv muhim o'rin tutadi. "Ona" so'zi har qanday tildagi eng muhim so'zlardan biri bo'lib, azaldan antropologiya, semantika, madaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, mifologiya va boshqa sohalardagi tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Tasviriy mantiqda "Ona" tushunchasi "Ayol" va "Ota-ona" tushunchalarining kesishishi sifatida taqdim etiladi: ona bir vaqtning o'zida ham ayol, ham ota-onadir. Va bu o'rinda Y.S.Stepanov tomonidan berilgan "konsepsiya" ta'rifini keltirish o'rinli bo'ladi: "Tushuncha", go'yoki, inson ongidagi madaniyat laxtasidir; bu, qaysi shaklda insonning ruhiy olamiga kiradi. Boshqa tomondan, konsepsiya insonning o'zi madaniyatga kirishi va ba'zi hollarda unga ta'sir qilishidir.

¹ Yu.S.Stepanov tomonidan taklif qilingan tushunchaning madaniy-mental-lingvistik birlik sifatidagi ta'rifi tushunchalarni til sohasiga taalluqli qiladi.

Shunday qilib, konsepsiya "madaniyat, ong va til sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni bir-biriga bog'lash uchun mo'ljallangan birlikdir, chunki u ong, madaniyatga tegishli va tilda obyektivlashtiriladi".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh mavzusi, markazi bu, albatta Onaga bo'lgan muhabbat. Bunda ijodkor insoniy tuyg'ular va bu tuyg'ularning bosh omili, gultojisi bo'lgan Onaga cheksiz muhabbat va ehtiromini tarannum etadi. Masalan, shoirning Ona haqidagi she'rlari har qaysi yoshdagi insonning yuragini larzaga keltiradi. She'rlardagi kechinmalar har qanday insonning quvonch-u dardi bilan chambarchas bog'liq. So'zlar goh o'y-xayolga toldiradi, goh chinakam ruhiy mamnuniyat, surur bag'ishlaydi.

*Men sizni o'ylayman shom-u saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,*

¹ Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: 3-е изд. - М.: Академический проект, 2004, с. 42-67.

*Tunlari charog'on shunday shaharda
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.*

*Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat. ("Onamga xat").*

Muhammad Yusufning juda ko'p she'rlari xalqimiz qalbiga qo'shiq orqali kirib keldi.

Muhammad Yusufning she'rlarida lingvokonsept va lingvopoetik obrazlarni aks ettirgan bir qarashda yengil, o'ynoqidek tuyuladigan misralari qa'rida bir olam dardli kechinmalar, shirin azob-u achchiq malham, o'tli hissiyotva titroqli hayajon mujassam:

*Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men – zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...*

*Mana, men ketyapman tosh yo'lda ko'zim,
Qadamim moshinlar yo'rg'asiga mos.
Yig'lasam yupatib o'zimni o'zim,
Pishqirib qo'yaman toychoqlarga xos. ("Onamga xat").*

Shoir she'rlarida "Ona" lingvokonsepti va lingvopoetik obrazlar nihoyatda rang-barang. Bular orasida o'z ohanrabosi bilan tortib turuvchi va eng yorqini – bu Ona obrazi.

*Va sizni o'ylayman shom-u saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmasman.
Tunlari charog'on shunday shaharda
Hech kimga ko'nglimni yora olmasman...*

*Ha, sevgi haqida. U dilga ne zeb,
Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib,
Baxtinga hamisha Siz sog'bo'ling deb,
Sog'ingan o'g'lingiz – Muhammad Yusuf. ("Onamga xat").*

Shoirning eng sara she'rlari qatoridan joy olgan: "Onamga", "Onajonim" "Onamga xat", "Onamdan xat" she'rlarida esa onaizoriga o'z vaqtida ko'rsata olmagan mehrini, qalbidagi afsus-nadomatlar-u sog'inchlarini shu qadar dilga yaqin ta'riflaganki, o'qigan inson nafaqat ta'sirlanadi, balki o'zi uchun qalban saboq ham oladi. Shoir Muhammad Yusuf o'z onasi uchun yozgan she'rda ham hayotiy haqiqat bor. Ona farzandini kutishi, yuragining bir parchasi haqida qayg'urishi shundoqqina so'zlarda namoyon bo'lgan. Ona yagona. Ona bitta. Onadek ulug' sodda zot dunyoda bo'lmasa kerak. Ayol qalblari ichida eng mehriboni ham bu ona qalbidir. Bu haqida qancha shoirlar she'rlar bitgan.

Muhammad Yusuf she'rlaridagi tasvirlar Ona haqida bo'lib inson qalbining tasviri kabi ishonchli va ta'sirchan kuchga ega:

*Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,*

Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!.. ("Onamga").

Farzandni dunyoga keltirgan ayol undan hech narsa kutmay, faqat undan bir parcha xat yoki bir og'iz qo'ng'iroq ilinjida yashaydi. Tashida bo'lmasa ham, ichida shoir aytganidek, quyidagi so'zlarni ta'kidlaydi:

*Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,
Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.
Yorug' bu dunyoda bormi, bilmayman
O'z o'g'li yo'liga intizor menday. ("Onamdan xat").*

Shoir bu jumalarni go'yo o'ziga qarata aytayotganga o'xshaydi, lekin chuqurroq diqqat qilinsa, ota-onasidan yiroqda bo'lgan barcha farzandlarga eslatma ekanligini anglab olish mumkin. Chunki ba'zan farzandlar uch-to'rt og'iz so'z bilan o'z ota-onasidan hol-ahvol so'rashga ham vaqt topolmaydi, onajonlari esa farzandini doim kutib yashaydi. Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, uning she'rlarida shoir, yozuvchi – umuman ijodkor o'y-xayollari, qalb haqiqatlari ifoda etilgan. U bor salohiyatini ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'lgan, olloh nazari tushgan iste'dod egasidir. Ya'ni qalbidagi his – tuyg'ulari, kechinmalarini hech qanday zo'riqishlarsiz tiliga jo qila olgan, qalamida ifoda eta olgan insongina haqiqiy ijodkor sanaladi.

Xalqimiz ardoqlagan shoir Muhammad Yusuf she'rlarida nazokat, go'zallik, noziklik, g'aroyib mutanosiblikni ko'rishimiz mumkin. Zero, shoir qalami qalbi bilan

hamohang ijodkor. U nimaiki yozsa, qalbdan yozar, har qanaqa ortiqcha tashbeharsiz ifoda etar edi. Shu sabab ham uning she'rlari kirib bormagan xonodon, navolarini tinglamagan inson topilmaydi. Muhammad Yusufning she'rlarida kechinma, fikr va hissiyot qorishiq, birga yashaydi. Bugina emas, ular bir-birining mag'iz-mag'iziga shunday singib ketadiki, ajratib ko'rishning iloji bo'lmay qoladi... Bu ajralmas birlik – butunlik lingvopoetik kechinmaning mohiyatini tashkil etadi. Ammo takomildagi lirik kechinmaning yuzaga chiqishi uchun yana bir nima talab etiladi. Shoir she'rlarida bevosita kechinma shaklida berilgan ehtirosli fikr (yoki fikriy ehtiros) ning shakllanish usuli, rivojlanish jarayonini kuzatib borishimiz mumkin. Ana shu holda “men” ifodasida kechinma – obraz yaxlit, ta'sirchan holda yuzaga chiqadi. Buni asoslash uchun Muhammad Yusufning “Beshinchi o'g'il” she'rida lingvokonseptni ko'rishimiz mumkin. Ushbu she'rda onadan ajragan bola qiyofasi gavdalanadi. O'g'il onadan ajragan. Uni butun borlig'i bilan sog'inadi. Sog'inish – mavzu. Sog'inish she'rda yetakchi lirik kechinma. Uning vositasida o'g'il obrazi ochilishi kerak. Biroq o'z onasini sog'ingan o'g'ilni she'rda yaxlit, birato'la ko'ra olmaymiz. Onani sog'inish birdaniga bo'y cho'zmaydi. U bizning ko'z o'ngimizda shakllanadi, hayotiy qaytarilmas bir jarayon sifatida rivojlana boradi. Biz uni mushohada etamiz. Shu sababli ham ishonamiz. Uning oqimida sog'inayotgan o'g'il qiyofasini ko'rib turamiz. Bu qiyofa tobora ravshanlasha borib, qalbimizga abadiy qoladi:

² *Yetmish yulduz yog'ilib,
Yarim oycha to'lolmas,
Yetti yanga yig'ilib,
Bitta ona bo'lolmas.
Ona tirik eshikka
G'urbat yaqin yo'lolmas.
Mening esa bag'rim qon,
Vayronaman Onajon...*

Yozuvchi ushbu she'rida ichki kechinma yukini ko'targan o'g'il yuragi onani qumsayotganini namoyon etadi. Ushbu fikr onani qo'msash orqali yana qaysidir tomonga yetaklayotgandek bo'ladi:

*Garchi biz yosh, g'o'r edik,
Siz bor – biz ham zo'r edik,
Bir mayizni besh o'g'il*

². Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 273

*Teng bo'lishib yer edik.
Goh talashsak, haq so'zni
Onam aytsin der edik.
Tushmi endi u zamon,
Hayronaman Onajon...*

O'g'il onani sog'inishdan, qo'msashdan tashqari yana qandaydir bir tuyg'uni, nimanidir qattiq istayotganini, bu istak esa armonli ekanligini seza boshlaymiz. Shoir bizga o'sha nimanidir anglatmoqni ko'rsatish uchun ham voqeadan chekinib, lirik qahramon turgan joydan ortga qarab yetaklaydi. Bu ortga qaytish o'g'ilning yoshlik, beg'uborlik damlarini ko'z oldimizga keltiradi.

*Tirik yursa volidang,
Toqqa kuching yetarkan.
Onang o'lsa, boshingdan
Oftob o'tib ketarkan.
Jindekkina alam ham
Tog'dek botib ketarkan.
Ko'ksim to'la ming armon,
To'lg'onaman, Onajon.*

Shoir bizni shunday ruhiy holatga solib qo'yadiki, biz ham mehr-muruvvatsiz sahroda lirik qahramon bilan birga azoblanayotgandek bo'lamiz. Hattoki eng yaqin kishilarni ham bir-biriga mehr oqibatli bo'lishga chorlab turuvchi yoki shu mehr nuri bilan ta'minlab turuvchi yolg'iz onaizor ekanligiga tan beramiz. Shoir misralarda onalarning bolalarga bo'lgan teng mehri sababli qo'yoshga o'xshatgan bo'lsa, olamdan o'tgandan so'ng esa uy qorong'i tunga o'xshab qoladi. Qorong'i tun esa azobli. Azob hislarni junbushga keltiradi. G'alayon ko'targan hislarning tonglari befoydir. Uyida halovatini yo'qotgan o'g'il "Farishtasiz ostonaman", deya holatini namoyon etadi.

*Ko'ngil o'zin tutingan,
Bir mehribon qo'msaydi.
Dunyoda bir odamga
Siring aytib bo'lsaydi.
Onasizni do'sti ham,
Dushmani ham aldaydi.
Ayting axir, men kimga*

Ishonaman, Onajon?..

Ha, mana endi o'g'il qo'msagan, shoir aytmoqchi bo'lgan nimanidir topgandek bo'lamiz. Bu "nimanidir", ya'ni aka-uka, do'st-u yorlar orasidagi mehr-oqibat. Demak, o'g'il faqat onani emas, balki o'zi uchun yaqin insonlar orasidagi mehrni ham qo'msaydi, uni axtaradi. Lirik qahramon hamma onalarga xos bo'lgan odatiy holdan kelib chiqib, onaning bolaga bo'lgan mehrini qo'msaydi. Bunday mehrni hech kimdan topa olmay butunlay zulmatda qolgandek his etib, o'zini ziyo istab bir yorug'lik ilinjida "zor qaqshayotgan parvonaga" o'xshatadi. Albatta, bu parvonalik, sog'inch o'tidan yonayotgan yetim bolaning nolasi edi. Qo'msash, sog'inch naqadar cheksiz va buyuk bir muhit ekanligini his qilar ekanmiz, lirik qahramonning keng dunyoga sig'may tor beshikni qo'msayotganligini ko'ramiz.

Onani tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun o'zi tug'ilib o'sgan maskani – Vatanini onaga qiyoslab kuylashdek zavqli va sharaflı baxt bo'lmaydi. Ona mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsa-da, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda Muhammad Yusuf ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi ona lingvokonsepti mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lgan. Yuqorida takidlaganimizdek, shoirning ona haqidagi she'rlari ko'p hollarda mehr, sog'inish orqali aks ettirgan. Masalan, "Onajon" she'rida:

³ *Uyalmay Ona deb,
Kelishimga boq!..
Sog'inch haqda she'rlar
Yozdim o'zimcha,
Mendan peshonangda
Dog'lar tizimcha.
O'g'il bo'lmay o'lay,
Attang, ming attang.
Qiz tug'sang netardi,
Ko'proq qiz tug'sang!..
Tirgak bo'lolmadim
Bitta qizingcha,
Uyalmay shoirman
Deyishimga boq.*

³Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.

⁴Boltaboyev H. So'z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.

Darhaqiqt, shoir she'rida ona soginchi, mehr-muhabbatidan ortiq quvonch bo'lmaydi. Ona kabi Vatan ham bag'rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo'llariga gul – u maysalar tutadi. Opa-singil kabi ko'ngli xira vaqtlarda hamdard-u hamroh bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o'xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo'lgan misralar yaratgan.

Haqiqiy er yigit onasi va opa-singlisini himoya qilishi, ularga tog'dek suyanch bo'lishi kerak. Opa-singil kabi ona ham himoyaga, tog'dek suyanch bo'ladigan o'g'ilga tayanadi. Shoir ushbu tushunchalarni teran anglab, onani singilga va opaga o'xshatgan bo'lsa ne ajab.

*Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham...
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...*

*Sig'may qolsam shunday keng bu jahona,
Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona,
Jonsiz tanim ustida ham parvona –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...*

XULOSA

Shoir she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, uning har bir she'rida hayotga bo'lgan tashnalik, teran o'ychanlik, samimiy tuyg'ular tarannumini ko'ramiz. Ayniqsa, ona mavzusidagi she'rlarida shoir ona haqida yozar ekan, uni shunchaki ta'riflab, bayon etib qo'ymaydi. Balki kuchli harorat cheksiz muhabbat bilan har bir kitobxon yuragiga kirib boradigan o'ziga xoslik ila ijod qiladi. Shuni unutmash kerakki, shoir she'riyati shunchaki chiroyli so'zlar majmuasi emas, bunda shoir she'riyatini jozibali qilgan va shorning samimiy qalbida to'lib-toshgan vatanparvarlik, xalqparvarlik, erksvarlik kabi tuyg'ulard aks etgan. Bu emotsiyalarning barchasi Muhammad Yusuf asarlarining o'ziga xosligini, ta'sirchanligini yuzaga keltiradi.

REFERENCES

1. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: 3-е изд. - М.: Академический проект, 2004, с. 42-67.
2. Demyankov V. Z. Termin «konsept» kak element terminologicheskoy kulturi. – М.: Nauka, 1975

3. Askoldov S.A. Konsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. – M.: Academia, 1997. – S. 267–280
4. Dzyuba E. V. Konsept v russkoy lingvokulture: Monografiya. Ural. gos. ped. un-t. – Ekaterinburg, 2011. – 224 s.
5. Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика теленомных концептов «любовь» и «счастье» (русско-английские параллели). -Волгоград: Перемена, 2003. -164с
6. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. -М., Изд-во Моск. Ун-та, 1997. –С 90-93
7. Зубарева Г.С. Концепт как основа языковой картины мира. Вестник МГОУ. Серия «Лингвистика». 2011. № 3. С.46-51.
8. Карапетян Е.А. Концептуальная лексика русской песенной лирики XIX – начала XX столетий. Монография. – М.: МГОУ, 2012. – 172 с.
9. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 273
10. Boltayev F. Shoir zamondoshlari xotirasidan. – Toshkent, 2004. – B. 192.
11. Yusuf M. Biz baxtli bo‘lamiz. – Toshkent: Nihol. 2008. – B. 200.
12. Boltaboyev H. So‘z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.
13. Boboyorov U., Xolsaidov F. Adabiyot. – Toshkent: Ilm ziyo, 2000. – B. 218 b.
14. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.